

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

manbalar asosidagi tahlili.....	347
G.Sh.Shaydullayeva	
Turon sivilizatsiyasi aholisining ijtimoiy holatiga madaniy aloqalarning ta'siri.....	353
I.S.Aslonov	
O'zbekiston SSRda 1960–1980-yillarda qishloq xo'jaligi boshqaruvida byurokratik muammolar va davlat mulkini talon-taroj qilish holatlari.....	358
X.Burxanov	
Raqamli jamiyatda axborot xavfsizligini ta'minlash mexanizmlari	362
N.R.G'ulomova	
Ziyorat turizmi: uning tarixiy-tadrijiy rivojlanishi va o'ziga xos xususiyatlari.....	367
Sh.F.Allanazarov	
Komil Xorazmiy asarlarida ijtimoiy-iqtisodiy hayot tahlili.....	380
A.T.Toshmamatov	
O'zbek va ukrain xalqlari madaniy uyg'unligining tarixiy namoyasi: Xasanovlar oilasi misolida	380
Sh.A.Mirzamidinova	
Ashurali Zohiriyning shaxsiyati, faoliyati va merosi.....	384
O.B.Abdunosirova	
Amir Temur va Temuriylar davrida pul munosabatlari	390
M.X.Muzaffarov	
Vengriya va Turkiy dunyo: tarixiy bog'lanish va aloqalari.....	393
S.F.Norbekov	
Sharqiy Slavyan diasporasining Turkistondagi madaniy va ma'rifiy hayoti (1918–1924 yy.).....	398

ILMIY AXBOROT

I.T.Boltaboev	
Ijtimoiy adolat konsepsiyasining zamonaviy falsafiy talqinlari.....	409
I.S.Aslonov	
O'zbekiston SSRda 1945–1980 yillarda sug'orish va melioratsiya tizimining rivojlanishi	413
N.M.Axmadiyev	
Yangi O'zbekistonda kelesajak avlod tarbiyasiga gerontologik mexanizmini yanada rivojlantirish.....	417
B.X.Karimov	
Ongni boshqarish falsafasi hamda globallashtirish sharoitida inson tafakkuri barqarorligini ta'minlashning zamonaviy konsepsiyasi	420
E.X.Zoyirov	
Ya'qub Charxiy ta'limotida borliq nazariyasi.	425
Sh.T.Abbosova	
Buyuk ipak yo'lida ilm-fan va madaniy muloqot rivoji.....	431
Sh.N.Niyozova	
Vatanparvarlikning ma'naviy-falsafiy mohiyati va shaxsning ijtimoiy-axloqiy yetukligi.....	434
Sh.X.Matyozubova	
Xorazm vohasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va ularning Yangi O'zbekistonga ta'siri.....	438
R.D.Dehqonov	
Teatr san'atining yoshlar ruhiy-axloqiy rivojlanishiga ta'siri	442
Z.T.Tursunboyev	
O'zbekistonda oilaviy zo'ravonlikning oldini olishda konformizm omilining ahamiyati	446
R.D.Dehqonov	
Yangi O'zbekistonda yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda teatr san'atining o'rni.....	451
Z.T.Tursunboyev	
“Tazyiq va zo'ravonlik” tushunchalari: turlari va oilada oldini olish mexanizmlari	455
N.T.Xolikov	
Globalashuv sharoitida egoistik tafakkur shakllanishini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari.....	459
Sh.A.Rasulova	
Harakatlar strategiyasidan Yangi O'zbekistongacha: xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy mavqeiini mustahkamlanishi	462
A.A.Aloxunov	



UO'K: 338.48:172.1(091)

ZIYORAT TURIZMI: UNING TARIXIY-TADRIJIY RIVOJLANISHI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**ПАЛОМНИЧЕСКИЙ ТУРИЗМ: ЕГО ИСТОРИЧЕСКО-ПРОГРЕССИВНОЕ РАЗВИТИЕ И ХАРАКТЕРИСТИКИ****PILGRIMAGE TOURISM: ITS HISTORICAL AND PROGRESSIVE DEVELOPMENT AND CHARACTERISTICS****G'ulomova Nilufar Rustamali qizi** 

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada turizmning istiqbolli yo'nalishlaridan biri - ziyorat turizmining tarixiy rivojlanishi va o'ziga xos xususiyatlari o'rganiladi. Ziyorat - insonlarni ma'naviy kamol toptirish vositalaridan biri sifatida tadqiq etiladi. Ziyorat an'analari, ziyorat odobiga oid tavsiyalar, ziyoratning turizm sifatida rivojlanishi va uning asosiy omillari to'g'risidagi empirik ma'lumotlar tahlil qilinadi. Shuningdek, ziyorat turizmini rivojlantirish strategiyalari, ziyorat turizmining klassifikatsiyasi yuzasidan mavjud konsepsiyalar tahlil qilinadi.

Abstract

This article studies the historical development and specific features of one of the promising areas of tourism - pilgrimage tourism. Pilgrimage is studied as one of the means of spiritual development of people. The traditions of pilgrimage, recommendations on pilgrimage etiquette, empirical data on the development of pilgrimage as tourism and its main factors are analyzed. Also, strategies for the development of pilgrimage tourism, existing concepts on the classification of pilgrimage tourism are analyzed.

Аннотация

В статье исследуется историческое развитие и особенности одного из перспективных направлений туризма – паломнического туризма. Паломничество рассматривается как одно из средств духовного развития человека. Анализируются паломнические традиции, рекомендации по паломническому этикету, эмпирические данные о развитии паломничества как туризма и его основных факторах. Также анализируются существующие концепции развития паломнического туризма и классификация паломнического туризма.

Kalit so'zlar: ziyorat, ziyorat turizmi, tarixiy rivojlanish, turizm yo'nalishlari, turistik faoliyat, xalqaro standart, milliy xususiyat, zamonaviy infratuzilma, ziyorat obyektlari, axborot muhiti, travel jurnalistika.

Key words: pilgrimage, pilgrimage tourism, historical development, tourist destinations, tourist activities, international standard, national features, modern infrastructure, pilgrimage objects, information environment, travel journalism.

Ключевые слова: паломничество, паломнический туризм, историческое развитие, виды туризма, туристическая активность, международный стандарт, национальные особенности, современная инфраструктура, объекты паломничества, информационная среда, трэвел-журналистика.

KIRISH

Dunyo miqyosida ziyorat turizmiga bo'lgan ehtiyojning ortib borishi tendensiyasi ziyorat turizmining o'ziga xos xususiyatlari va uning rivojlanish tarixini o'rganish zaruratini yuzaga keltiradi. UNWTO tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, Ispaniya 2023-yilda 85 milliondan ortiq xorijiy turist qabul qilib 108.7 milliard evro daromad olgan bo'lsa, Xindistonda ichki turistik safarlar soni 2.5096 milliardga etgan². AQSH 1,3 trillion dollar, Xitoy 679 milliard dollar daromad qilgan³. 2024-yilda ziyorat maqsadida sayohat qiladigan turistlar soni yiliga o'rtacha 300 mln kishidan ortib, barcha turistlarning 25%ni tashkil etgan.

O'zbekistonda ham turizmning istiqbolli yo'nalishlaridan biri - ziyorat turizmining tez sura'atlar bilan rivojlanishiga ta'sir etuvchi bir qator omillar mavjud. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyov ta'kidlaganidek: "O'zbekiston ham sayohat, ham ziyorat uchun qulay

² <https://www.e-unwto.org/doi/book/10.18111/9789284425808>

³ https://mize.tech/blog/the-10-countries-with-the-biggest-tourism-industry/?utm_source=chatgpt.com

mamlakat. Chunki ona zaminimizda butun dunyoga ma'lum va mashhur bo'lgan ajdodlarimiz mangu qo'nim topgan. Ular qoldirgan boy ma'naviy-madaniy merosga xalqaro maydonda qiziqish juda katta⁴.

Shu bois, "O'zbekiston - 2030" strategiyasida xorijiy turistlar sonini 15 millionga, ichki sayyohlar sonini 25 millionga, ziyorat turizmi bo'yicha keladigan turistlar sonini 3 million nafarga oshirish, xususi investitsiyalarni jalb qilish hisobiga 30 ta yirik turizm klasterlarini tashkil etish, turizm xizmatlari eksportini 5 milliard dollarga etkazish ustuvor maqsad etib belgilangan⁵. Belgilangan ustuvor maqsadlardan kelib chiqib, so'nggi yillarda turizm eksporti 1,6 karra oshirilishi natijasida, sohadan kelayotgan daromad 3,5 milliard dollarga etganligi, mazkur sohada 2 mingdan ortiq yangi tadbirkorlik faoliyatlari qo'lga qo'yilganligi, o'tgan yili xorijiy sayyohlar oqimi ilk bor 10 millionlik marradan o'tganligi, hududlarda turizm va servis infratuzilmasi jadallik bilan rivojlanayotganligini ko'rsatadi. Hududlarning turizm salohiyatini yanada oshirish hamda xorijiy hamkorlar bilan amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarini jadallashtirish orqali zamonaviy turizm marshrutlarini tashkil etish, tuman va shaharlarni etno, gastronomik, tibbiy, ekstremal, madaniy-tarixiy, ziyorat, qishki va agroturizm asosida rivojlantirish imkoni yaratiladi⁶.

O'zbekistonda 1200 dan ortiq ziyoratgohlarning mavjudligi, qadimiy me'morchilikning ulug'vor yodgorliklari va qo'lyozmalar saqlanib kelinayotganligi mamlakatning sayyohlik imkoniyatlarini oshirish, musulmon mamlakatlaridan ko'plab sayyohlarni jalb qilish, ziyorat turizmini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish hamda tadqiq etish metodologiyasii ishlab chiqish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ziyorat turizmining ijtimoiy zarurati, insoniyat hayotida tutgan o'rni va rivojlanish istiqbollari tarixchi, etnograf, iqtisodchi, dinshunos, sotsiolog, filolog, pedagog va jurnalistlarning tadqiqot obyektiga aylangan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda ziyoratchilarni jalb etadigan eng muhim omillardan biri – bu mashhur islom ulamolari, shayxlar, so'fiy ustozlar va solih insonlar bilan bog'liq insonlar bilan bog'liq ko'plab maqbaralar va ziyoratgohlarning mavjudligidir. Islom dunyosining eng qimmatbaho Qur'oni Karim namunalaridan biri - Xalifa Usmon Qur'on kitobi saqlanuvchi Hazrati Imom majmuasi, buyuk islom imomi Muhammad Al-Buxoriy maqbarasi, Nakshbandiya tarikati izdoshlari maqbaralari va shu kabi ko'plab boshka diniy markazlar mavjud⁷.

Imom Al-Buxoriy, Imom At-Termiziy, Abu Mansur Moturidiy, Abdulxoliq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband, Burhoniddin Marg'inoniy kabi islom dini rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk allomalar, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oni, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy, Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi kabi jahon ilm-fani tarixida o'chmas iz qoldirgan olim va mutafakkirlarning vatani sifatida O'zbekiston zamini butun dunyodan islom sivilizatsiyasining muhim markazlaridan biri sifatida sayyohlarni chorlab kelmoqda. Bu allomalarning maqbaralarini ziyorat qilish nafaqat ma'naviy ehtirom ko'rsatish, balki islom ilmining ildizlariga yaqinlashish imkoniyatini beradi.

2007-yilda Islom konferensiyasi tashkiloti (OIK) tarkibidagi muassasalardan biri – Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha Xalqaro islom tashkiloti tomonidan (ISESSO) Toshkentni Islom madaniyatining poytaxti deb e'lon qilinishi⁸, O'zbekistonning "Jahon musulmon sayyohlari indeksi"da "Eng kuchli sayohat yo'nalishi" sifatida tan olinishi⁹, Islom sivilizatsiyasi rivojiga ulkan hissa qo'shgan mutafakkirlar merosini ilmiy-amaliy yondashuv asosida o'rganish maqsadida Islom sivilizatsiyasi markazi¹⁰, Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlarining

⁴ <https://sputniknews.uz/20171004/6451356.htm>

⁵ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрь «Ўзбекистон — 2030» стратегияси тўғрисида»ги ПФ-158-сон Фармони, Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, <https://lex.uz/ru/docs/6600413>.

⁶ Ўзбекистон Республикаси Президенти раислигида ўтказилган видеоселектор йиғилишидаги нутқидан. 2025 йил 9 апрель.

⁷ Исаджанов А., Гульмуродов И. Жаҳон иқтисодиётида зиёрат туризми: хусусиятлари ва ривожланиш тенденциялари. <https://cyberleninka.ru/article/n/zha-on-i-tisodiyotida-ziyorat-turizmi-hususiyyatlari-va-rivozhlanish-tendensiyalari>

⁸ <http://mustaqillik.uz/uz/events/view/143>

⁹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Бутунжаҳон туризм ташкилоти Бош Ассамблеяси 25-сессиясидаги нутқи // <https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-respublikasi>.

¹⁰ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 23 июндаги «Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузурида Ўзбекистондаги Ислам цивилизацияси марказини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида» ПҚ-3080-сонли қарори

TARIX

faoliyat ko'rsatishi O'zbekiston zaminini dunyo sivilizatsiyasining muhim markazlaridan biri sifatida namoyon qilish imkoni yaratmoqda.

Ziyorat turizmi bo'yicha o'tkazilayotgan Xalqaro forum (2019 yildan), har yili noyabr oyining birinchi haftasida (2022 yildan) tashkil etilayotgan "Xalqaro ziyorat turizmi haftaligi" ziyorat turizmini rivojlantirishda an'anaviy qadriyatlarning o'rni va zamonaviy tendensiyalari, raqamli texnologiyalarning ziyorat turizmini rivojlantirish va ommalashtirishga ta'siri, ziyorat turizmini barqaror rivojlantirish sohasida xalqaro hamkorlik imkoniyatlarini muhokama qilish, sohaga raqamli texnologiyalarni joriy etish, sun'iy intellektidan foydalanish, ziyoratchilar uchun infratuzilmani rivojlantirishning dolzarb masalalari muhokamasi maydoniga aylandi.

Tarixiy manbalarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, ziyorat an'analari chuqur antik davrlarga borib taqaladi. Jumladan, ziyorat turizmi bo'yicha rossiyalik olim A.Babkinning fikricha, ziyorat turizm, bu biron – bir dinga e'tiqod qiluvchi kishilarning ziyorat qilish maqsadida muqaddas joylarga borishi hisoblanadi. Uning ta'kidlanishicha: "Hindistonda odamlar qadim zamonlardan beri u yoki bu xudoning energiyasi bilan to'ldirilgan muqaddas joylarga ziyorat qilishgan. Qadimgi Yunonistonda mamlakatning turli burchaklaridan kelgan ziyoratchilar Delfiga ma'badda yashagan payg'ambar ayol Pifiyani bashorat qilish uchun kelishdi. O'rta asrlarda ziyoratchilik keng tarqaldi"¹¹.

VII asrga kelib islom dinining yuzaga kelishi bilan ziyorat qilishning yangi tartib-tamoyillari belgilandi. "Jomi' al-usul" asarida sahobiy Buraydadan shunday rivoyat keltiriladi: "Rasululloh sollallohu alayhi vasallam shunday dedilar: "Men sizlarga (avvalroq) qabrlarni ziyorat qilishni man etgan edim. Biroq, endi Muhammadga onasi qabrini ziyorat qilishga Rabbisidan ijozat berildi, bas, sizlar ham o'z yaqinlaringiz qabrlarini ziyorat qilinglar, zero u oxiratni eslatadi. Rivoyatda aytilishicha, Payg'ambar alayhissalotu vasallam: "Qabrlarni ziyorat qilinglar, faqat u erda faxsh so'zlarni aytmanglar", - deganlar"¹².

Turkiy xalqlarning VIII asrga oid yodgorliklaridan biri "Bilg'a xoqon bitigi"da turkiylar e'tiqodiga ko'ra ziyoratgohlarni asrab-avaylash juda muhim bo'lib, ularni qo'ldan berib qo'yish urf-odatlardan ajralib, yovga taslim bo'lish bilan teng" hisoblangan"¹³.

L.Ilchenkoning ma'lumotlarida musulmonlarning Makka shahriga "Haj" safari "ziyosat turizmi" sifatida ko'riladi va katta ziyorat, kichik ziyorat tarzida nomlanadi.

XVI–XIX asrning birinchi yarmida haj safarlarining O'rta Osiyo xalqlari ma'naviy, mafkuraviy, ijtimoiy, iqtisodiy hayotidagi o'rnini o'rgangan olimlarning¹⁴ ma'lumot berishlaricha, O'rta Osiyoda mahalliy hukmdor va shayxlardan tashqari "dalil" hamda "vakil" deb yuritilgan shaxslar haj ziyoratini tashkillashtirgani, haj safarini amalga oshirgan musulmonlarning ko'pchilik qismi tasavvuf shayxlari, ularning muridlari, ziyoli va savdogarlardan iborat bo'lgani, ziyoratchi ayollar esa kamchilikni tashkil etgani dalillangan.

Inson hayotida ziyoratning muhimligi, ziyorat odobiga oid tavsiyalar buyuk allomalarning didaktik asarlarida ham o'z ifodasini topadi. Jumladan, XV asrda yashagan Xusayn Voiz Koshifiy¹⁵ "Futuvvatnomai Sultoniyy yoxud javonmardlik tariqati" asarida "Agar katta abjad qaysidir, deb so'rasalar, u (quyidagi) yigirma to'qqiz so'zdan iborat deb aytgin: o'n birinchi — ko'ngillarni ziyorat etish, ya'ni ko'ngillar - ka'basiga sig'inish", - deb ta'kidlaydi.

Agar borilishi lozim bo'lgan mavze' (joy)lar qaysidpr, deb so'rasalar, aytgil:ikkinchidan, qabrlar va qalblar ziyoratiga borish, biror gunohkorning shifoati yohud bemorning ayodatiga borish yoki jabru zulmni daf' etish uchup qadam tashlash. Agar oyog'ning odobi nechta, deb so'rasalar, ikkita deb aytgil.

Agar nima maqsad uchun safarga chiqiladi, deb so'rasalar, javob berib aytki, sufiylar uch narsa uchun safar qiladilar: ulug' avliyolarni ziyorat qilish, yo nafs riyozati yoki tariqat yo'liga kirgan mardlarpihg diydorini ko'rish uchun, deb ta'kidlaydi va safarning aniq ko'rinib turgan o'n bitta

¹¹ Бабкин А.В. Специальные виды туризма. – Учебное пособие. Ростов на-Дону, 2008. – Б.7. <http://www.tourlib.net/>

¹² Эралиев Б. Ўзбекистон зиёратгоҳлари ва қадамжолари; Андижон ва Наманган вилоятлари / Б.Эралиев, И.Остонақулов, Н.Абдулахатов. –Тошкент, Turon Zamin Ziyo. 2014, - Б. 4.

¹³ Эралиев Б. Ва бошқ. Ўзбекистон зиёратгоҳлари ва қадамжолари (Фарғона вилояти). 1-китоб. – Тошкент: Turon Zamin Ziyo. – 2014. – Б. 7.

¹⁴ Таниева Г. М. XVI–XIX аср ўрталарида ҳаж зиёратининг Ўрта Осиё халқлари маънавий, мафкуравий ва ижтимоий ҳаётида тутган ўрни, Дисс....тарих фанлари.- Т.:2012. 260-б.

¹⁵ Хусайн Воиз Кошифий Футувватномаи Султониё ёхуд жавонмardлик тариқати. Форс-тожик тилидан Н. Комилов таржи маси. Т., А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994, - Б. 15.

foydasini sanab o'tadi. Jumladan, aziz avliyolar, ulug' insonlar qabrini ziyorat qilishning savobi behad ko'pdir", - deyiladi.

Shuningdek, agar safar necha xil bo'ladi, deb so'rasalar, ikki xil bo'ladi, deb ayt: biri — surat safari, ikkinchisi — ma'no safari. Agar ma'no safari nimaga asoslanadi, deb so'rasalar, jonu dil qadamiga deb ayt¹⁶, - deyilganda ham ziyorat nazarda tutiladi.

Temur tuzuklarida keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, buyuk sarkarda Amir Temur insonlarning ziyorat qilishi qo'llab-quvvatlagan va ziyoratchilarni o'z himoyasiga olgan: "... mendan qochib qaysar panohiga kirgan Qora Yusuf turkman esa qaroqchilar boshlig'iga aylanib, ayniqsa ikki muqaddas shahar ziyoratiga qatnovchilarning karvonlariga ko'p zarar keltirayotganligi xabari quloqqa eshitildi. Buning ustiga o'sha taraflardan bir jamoat kishilar kelib, ular ham Qora Yusufning jabr-zulmidan arz qildilar. Shuning uchun Qora Yusufning jazosini berib, qaysarning ko'zini g'aflat uyqusidan ochib qo'yishim lozim ko'rindi. Bu xususda kengash o'tkazib, har bir shahar va qabiladan lashkar to'plab, Qaysarning ustiga yopirilib borishga qaror qildim"¹⁷. Bundan ko'rinadiki, bu davrda odamlarning Makka va Madina shaharlariga ziyorati yanada ko'paygan.

A.Temurning "Azizu avliyolar, sahobalar maqbaralarini, qutlug' qadamjolarni ziyorat etmoqni ham farz, ham qarz bilur edim. Qayda bo'lmay, ziyoratgohlar oldida otdan tushib, tahorat olgach, yalang oyoq bilan borib, ziyoratni o'rinlatdim. Arkonu davlat, barcha mulohimlarim ham ziyoratgohlarni ana shunday tavof etmoqni odat bilishdi"¹⁸, - degan fikrlari ziyorat odobiga qat'iy amal qilinganligidan dalolat beradi.

Keyinchalik "ziyora" atamasi boshqa mamlakatlar va joylarga sayohat qilish tushunchasi bilan bog'lanib aytila boshlandi. Ushbu hududlar ziyorat turizmining asosiy hududlari sifatida e'tirof etildi.

XIX asrning 80-yillariga kelib Malayziyada ziyorat turizm sifatida rivojlana boshladi va ziyorat turizmi deganda, Makka va Madina shaharlaridagi masjidlar, qabrlar hamda muqaddas qadamjolariga tashrif buyurish nazarda tutiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotlarimiz davomida o'rganilgan manbalarga tayangan holda, ziyorat, ziyorat turizmiga oid bir-birini inkor qiluvchi yoki rivojlantiruvchi bir qator qarashlar mavjudligini ko'rishimiz mumkin.

O'zbek tilining izohli lug'atida: "ziyora" arabcha so'z bo'lib, tashrif, tabarruk joylarga safar qilish, muqaddas joylarga, mozar va qabristonlarga borib sig'inish, shuningdek, hurmat yoki rasmiyat yuzasidan keksa, tabarruk kishilar, hurmatli zotlar huzuriga tashrif buyurib, ularning holidan xabar olish, ularni muborakbod qilish¹⁹ ma'nolarida izohlanadi.

Ziyorat (ziarah) – musulmon sayohatini tashkil etishning uchinchi shakli hisoblaniladi. Ziyorat tushunchasi Malayziyada umra va haj ziyoratchilaridan boshqa muqaddas joylarga hamda tarixda yashab o'tgan buyuk avliyolar qabrlari va qadamjolariga tashrif buyurishni nazarda tutadi²⁰.

Ziyorat ocherklari janrini chuqur o'rgangan N.V.Gudkovaning fikricha: "Ziyorat - insonni ma'naviy kamol toptirish vositalaridan biri. Ziyorat - insonning o'z gunohkor tabiatini aniqlash yo'lidagi qadamdir, tabiiyki, bu jismoniy ma'noda oson bo'lmaydi"²¹.

O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish masalalarini o'rgangan olimlar G.Gulyamova, F.Abdusalomovalar ziyorat - kishilarning muqaddas joylarga tashrif buyurish va u erlarda ma'lum amallarni bajarishidan iborat, ziyorat turizmi esa ziyorat kilish uchun sayohat qiluvchilarga xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan faoliyat turi²² degan xulosalarga keladi.

Xorijlik olim K.Mazin esa o'z qarashlarida ziyorat – diniy hayotni vujudga kelishi, turizm - madaniy hayotni vujudga kelishi, deb hisoblaydi va u ziyoratni turizm sifatida e'tirof etilishiga

¹⁶ Ўша манба. – Б. 62-63

¹⁷ Темур тузуклари //Форсчадан/ А. Соғуний ва Ҳ. Кароматов тарж; Б. Аҳмедов таҳрир. остида/.— Т.: Нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991.— Б. 52.

¹⁸ Ўша манба. Б. 52.

¹⁹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати/ А.Мадвалиев таҳрири остида. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти - Б.148.

²⁰ Алиева М., Равшанов Т. Малайзияда зиёрат туризми ривожланишининг ўзига хос хусусиятлари ва унинг ташкилий механизмлари. – Тошкент, "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2021. – Б.387-394.

²¹ Гудкова Н.В. Становление и особенности жанра полемического очерка в отечественный православной публицистике: дисс. ...канд. Фил. Наук: 10.01.10 – Тольятти, 2017. – С. 17.

²² Гулямова Г.П., Абдусаломова Ф. Ўзбекистонда зиёрат туризмини ривожлантириш. <https://cyberleninka.ru/article/n/zbekistonda-ziyora-turizmini-rivozhlantirish>

TARIX

umuman qo'shilmaydi. O'zbekistonlik olim A.Xudoyarovning fikricha, ziyorat turizmi muqaddas qadamjolarni ziyorat qilish, ulug' ajdodlarimizga ehtirom ko'rsatish, ularning o'tmishdagi hayoti va yaratgan madaniy-me'moriy hamda tarixiy merosi bilan tanishish, ularni xotirlash, shuningdek, diniy va dunyoviy marosimlarda qatnashish maqsadida amalga oshiriladigan safarlarni o'z ichiga oladi, - degan fikrlarini keltirib o'quvchini bahs-munozaraga chaqiradi.

Rus olimi A.V.Babkin ziyoratning maqsad va xususiyatlariga ko'ra quyidagicha tasniflaydi:

- 1) ishtirokchilar soni va oilaviy mansubligi bo'yicha - yakka tartibdagi, oilaviy va jamoaviy ziyorat;
- 2) davomiyligi bo'yicha - uzoq va qisqa muddatli ziyoratlar (ilgari rus pravoslav qonunlariga ko'ra, ziyorat 10 kundan ortiq sayohat deb hisoblangan);
- 3) mavsumiyligi bo'yicha - yil bo'yi, shuningdek, diniy bayramlarga mo'ljallangan ziyorat qilish;
- 4) tashrif buyurish obyektlari bo'yicha - konfessiyaviy ibodat joylariga (cherkovlar, monastirlar, ibodatxonalar), shuningdek, tabiiy ibodat joylariga (tog'lar, ko'llar, g'orlar, buloqlar, to'qaylar) tashrif buyurish;
- 5) ziyorat obyektining joylashgan joyi bo'yicha - ichki (davlat chegaralari doirasida) va xorijiy ziyorat safarlari;
- 6) farz asosida - ixtiyoriy va farz haj ziyoratlari (masalan, islomda haj ziyorati har bir mo'min uchun farzdir)²³.

Ziyorat turizmi — insonlarning muayyan din va ishonchlarga bo'lgan ehtiyojlaridan kelib chiqqani holda, nafaqat diniy, balki psixologik, madaniy va ijtimoiy ta'sirga ega, din bilan bog'liq muqaddas joylarga, muqaddaslar qabrlariga, diniy marosimlarga va xatto tabiiy yoki tarixiy o'rganishlar bilan bog'liq sayyohatlarga qaratiladi.

TADQIQOT NATIJALARI

Ziyorat turizmi, yuqorida qayd etib o'tganimizdek, dinshunoslik, iqtisodiyot, sog'liqni saqlash va turizm, jurnalistika, ta'lim sohalarida olib borilgan tadqiqotlarda ham chuqur o'rganilmoqda. Jumladan, ziyorat turizmining iqtisodiy aspektlari I.S.To'xliyev, F.X.Kudratov, M.K.Pardayev, B.Safarov, SH.R.Ro'ziyev, A.A.Xudoyorov kabi olimlar tomonidan o'rganilgan. Ularning tadqiqotlarida mamlakat iqtisodiyotining dinamik tarzda o'sishida ziyorat turizmining o'rni tahlil qilinarkan, ziyorat turizmi mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, mamlakatga valyuta tushumini oshirishi, ish o'rinlarini yaratishi hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirishdagi o'rnini ko'rsatib beradi.

A.Eshtayevning "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish istiqbollari" mavzusidagi maqolasida²⁴ ziyoratning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Olim ziyorat turizmi - bu turli din vakillarining ziyorat maqsadidagi sayohatlari yig'indisi, ziyorat - mo'minlarning muqaddas joylarga sajda qilishga intilishi, - deb ta'riflaydi va ziyorat qilishning quyidagi sabablarini ajratib ko'rsatadi:

- ruhiy va jismoniy kasalliklardan shifo topish istagi;
- qarindoshlar va do'stlar uchun ibodat qilish;
- inoyatga ega bo'lish;
- xudojo'y ishlarni bajarish;
- gunohlar uchun ibodat qilish;
- yuqoridan yuborilgan ne'matlar uchun minnatdorchilik bildirish;
- iymon-e'tiqodga sadoqat ko'rsatish;
- iymon nomidan zohidlikka intilish;
- hayotning mazmuniga ega bo'lish.

Iqtisodchi olimlar A.Isadjanov, I.Gulmurodov ziyorat turizmining o'ziga xos xususiyatlari va tendensiyalarini o'rganarkan "musulmon xalqlarning tez sur'atlarda ko'payib borishi hamda daromadlarining doimiy o'sib borayotganligi halol turizmning jadal rivojlanishiga xizmat qilmokda", - degan xulosaga keladi.

²³ Бабкин А.В. Специальные виды туризма. – Учебное пособие. Ростов на-Дону, 2008. – Б.8-12.

<http://www.tourlib.net/>

²⁴ Эштаев А.Ўзбекистон Республикасида ички ва зиёрат туризмини ривожлантириш истіқболлари. – Тошкент, "Іqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2021. –Б. 380-386

Ziyorat turizmini diniy ma'rifiy turizm sifatida o'rgangan G.Gulyamova, F.Abdusalomovalar "O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish" nomli maqolasida turizm mutaxassislari musulmonlarning diniy talablaridan chiqmagan holda har qanday sabab bilan sayohat qilishlarini barcha uchun birdek bo'lishi uchun qanday nomlanishi ustida fikrlar bildirganliklarini va ziyorat turizmi, islomiy turizm, diniy turizm, sha'riy turizm, halol turizm kabi taklif etilgan atamalarning muammoli jihatlarini bo'lganligi sababli, bahs va munozara, diniy soha va turizm mutaxassislarning fikrlaridan kelib chiqib Muslim-friendly travel (musulmonlar uchun qulay turizm) atamasi ma'qul ko'rilganligini ta'kidlaydilar²⁵. Islom turizmi markazining ta'rifiga ko'ra quyidagilar islom turizmi yo'nalishlari sifatida belgilangan:

- turli yo'nalishda sayohat qiluvchi musulmonlar;
- musulmon mamlakatiga sayohat qiluvchi musulmonlar;
- islom tamoyillariga amal qilgan holda sayohat qilish;
- islom merosini o'rganish uchun sayohat qiluvchi musulmonlar;
- islom merosini o'rganish uchun sayohat qiluvchi musulmon bo'lmaganlar.

Islomshunos olim A.Xudoyorovning ta'kidlashicha, yurtimizning diniy obidalarga boyligi, tarixan islom dini rivojlangan mintaqalardan biri bo'lganligi ziyorat turizmining muvaffaqiyat bilan rivojlantirish imkoniyatini beradi. Bugungi kunda Malayziya, Indoneziya, Pokiston, Saudiya Arabistoni, Afg'oniston, Turkiya, Birlashgan Arab Amirliklari kabi musulmon mamlakatlaridan tashrif buyurayotgan ko'plab turistlarning asl maqsadi respublikamizda mavjud diniy obidalarni ziyorat qilishdan, tanishishdan iborat²⁶.

MDH davlatlarining etakchi olimlari A.V.Babkin, S.Y. Jitenev, D. A. Troitskiy, K. A. Mazin, T. V. Boyko, N. D. Nurtazina, P. V. Pyatnov, T. L. Dudnik, S. V. Dusenkov, E. V. Shunina, R. A. Beknazarov, T. T. Xristov, V. P. Ovsyannikov kabi diniy turizm va ziyorat masalalarini o'rganishga oid tadqiqotlar olib borganlar. V.P.Ovsyannikov, V.N.Yakuninlarning tadqiqotlarida ziyorat turizmi diniy turizmning yo'nalishi sifatida o'rganiladi. Ular diniy turizmning ekskursiya yo'nalishidagi diniy turizm, diniy mavzudagi ilmiy turizm (dinshunoslik maqsadlarida) va ziyorat turizmiga ajratgan²⁷. "Diniy turizm" va "ziyosat" tushunchalarini chalkashtirib yubormaslik kerak. Ularning asosiy farqi shundaki, diniy turizm ma'rifiy xarakterga ega, ziyosat esa diniy maqsadlarni ko'zlaydi. Ziyorat diniy an'analar bilan qat'iy tartibga solinadi, bu dastlab ishtirokchilar chuqur diniy e'tiqodga ega bo'lishlarini va konfessional dunyoqarashni qabul qilishlarini nazarda tutadi. Diniy turizmning ekskursiya yo'nalishi diniy ziyoratgohlar, yodgorlik joylari va diniy kultlar bilan bog'liq madaniy muassasalarni ziyorat qilishni o'z ichiga oladi. Bular muzeylar, ko'rgazmalar va dunyoviy odamlarga ma'naviy qadriyatlarni his qilish imkonini beradigan boshqa saytlardir. Bunday sayohatlarda sayyohlar me'moriy ansambllar, monastirlar, cherkovlar, ikonalar, azizlarning yodgorliklari va muqaddas buloqlarga qiziqishi mumkin, - degan fikrni ilgari suradi.

A.V.Babkin ziyorat turizmi (ma'naviy-ziyosat yo'nalishini alohida ajratib ko'rsatish kerak)ni diniy turizmning muhim turi sifatida ko'rsatadi u din vakillarining diniy ehtiyojlariga asoslanishini ta'kidlaydi. Ikkinchi turi sifatida ekskursiya-ma'rifiy yo'nalishdagi diniy turizmni klassifikatsiyalaydi²⁸.

O.A.Balabeykina tadqiqotlarida A.V.Babkin, V.N. Yakuninlarning ziyorat turizmini "dinshunoslik maqsadlariga ega ilmiy turizm" deb ataydi degan fikrlariga qo'shilgan holda diniy turizm doirasida ham ta'limga e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlaydi hamda ziyosat ko'p qirrali hodisa bo'lib, zamonaviy sharoitda yanada ko'proq qirralari shakllanayotganligini ko'rsatadi va asosiy mezonlarga qarab, ziyorat turizmining turlarini ajratadi: Ishtirokchilar soniga va ularning oilaviy guruhga mansubligi darajasiga qarab, ziyoratgohlar individual, oilaviy yoki guruhga bo'linadi. Ularning davomiyligiga qarab, ziyoratlar qisqa yoki uzoq bo'lishi mumkin.²⁹

Xorijlik olim N.Kollinz-Kreiner xulosasiga ko'ra, insoniyat jamiyatlarida keng tarqalgan diniy-madaniy hodisa bo'lgan va jahondagi asosiy dinlarning muhim xususiyati bo'lgan ziyorat diniy

²⁵ Ўша манба.

²⁶ Худоёров А. Ўзбекистонда зиёрат туризми бозорининг ривожланишида тизимли ёндашув масалалари ва унинг хусусиятлари// Иқтисод ва молия. 2020. 2 (134), - Б.36-44.

²⁷ Овсянников В.П., Якунин В.Н. Религиозный туризм как механизм поддержания духовно-культурных процессов на уровне регионального социума. <https://cyberleninka.ru/article/n/reliigioznyy-turizm-kak-mehanizm>

²⁸ Бабкин А.В. Специальные виды туризма. – Учебное пособие. Ростов на-Дону, 2008. – Б.7, 251 <http://www.tourlib.net/>

²⁹ Балабейкина О.А. Религиозный туризм: возвращение к сущностным аспектам и влияние на развитие экономики региона. <https://cyberleninka.ru/article/n/reliigioznyy-turizm-vozvrashenie>.

TARIX

sabablarga ko'ra, bir mamlakat chegaralari ichida va undan tashqarida, ma'naviy maqsadlarni amalga oshirish va ichki uyg'unlikka erishish uchun sayohat sifatida belgilanadi³⁰.

E.V. Pecheritsa va E.E. Sharafanovlarning 2014-yilda chop etilgan ilmiy maqolasida mualliflar tadqiqot vaqtida ilmiy muomalada qabul qilingan diniy turizm ta'riflarini ushbu sohaning etakchi mutaxassislari V.S. Senin, S.Y. Jitenev, A.V. Babkin va T.T. Xristovlar tomonidan belgilab berilgan ta'riflarni aks ettirishga harakat qildilar va "Diniy turizm – bu tarixiy, madaniy va tabiiy meros bilan bog'liq obektlarga sayyohlarning tashrifini tashkil etish faoliyati", - degan xulosaga keldi.³¹

V. Pushkas "Diniy meros turizmi" madaniy va tarixiy obidalarga shaxsiy qiziqish uchun, ularga alohida ma'naviy ma'no singdirmagan holda ziyorat qilishdir. "Diniy turistlar" - ma'lum bir diniy maqsadda ma'lum bir joyga sayohat qiladiganlar³², - degan xulosani beradi.

Keyingi yillarda diniy turizmning ushbu turi bo'yicha xizmatlar ko'lamini kengaytib, hatto diniy tashkilot o'tkazadigan ilmiy tadbirda qatnashish asosiy maqsad qilib olingan sayohat xizmatlari ham paydo bo'lganligiga e'tiborni tortadi.

Tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ziyorat turizmi har qanday mamlakatning ham iqtisodiy, ham ma'naviy yuksalishida muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, **ziyosat turizmi** axloqiy tiklanish, ruhan poklanishga yo'naltirilgan bo'lib, insonlarning ma'naviy qadriyatlariga, madaniy merosga qiziqishini uyg'otibgina qolmay, ma'naviy qadriyatlarini yangi darajaga ko'tarishga o'zining munosib hissasini qo'shishga undaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ziyorat turizmi turizm turizmning asosiy turlaridan biri sifatida shakllanishi va tarixiy rivojlanishini o'rganish bir necha sohalarning tadqiqot obyekti sifatida qaralmoqda.

O'zbekistonda ziyorat turizmi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi va sayyohlik oqimining oshishida muhim ahamiyatga ega. Ziyorat turizmini yanada kengaytirish, sayyohlar oqimini oshirishning o'ziga xos tendentsiyalari mavjud bo'lib, ikkita asosiy jihatga e'tibor qaratishni talab etadi. Birinchidan, O'zbekistonning ziyorat turizmi salohiyatini rivojlantirish, shaxs ma'naviy madaniyatini yuksaltirishda ziyorat turizmining tarbiyaviy ta'siri masalalari chuqur tahlil qilish, ikkinchidan, ziyorat turizmining rivojlanishida travel jurnalistika imkoniyatlaridan foydalanish.

Yuqorida ta'kidlaganganidek, ziyorat maqsadida sayohat qiladigan turistlar soni yiliga o'rtacha 300 mln kishidan ortib, barcha turistlarning 25%ni tashkil etayotganligi ham ziyoratchilarning axborot olishga bo'lgan ehtiyoji oshib borayotganligini ko'rsatadi. Shu bois, mazkur yo'nalish qo'shimcha mulohaza yuritishni va alohida tadqiqot mavzusi sifatida keng ko'lamdagi ilmiy tadqiqot ishlari olib borilishini talab qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. UNWTO International Tourism Highlights – 2024 Edition. November 2024, UN Tourism, Madrid, DOI: <https://www.e-unwto.org/doi/book/10.18111/9789284425808>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 23 июндаги "Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузурида Ўзбекистондаги Ислон цивилизatsияси марказини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида" ПҚ-3080-сонли қарори.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрь «Ўзбекистон — 2030» стратегияси тўғрисида»ги ПФ-158-сон Фармони, Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, <https://lex.uz/ru/docs/6600413>.
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Бутунжаҳон туризм ташкилоти Бош Ассамблеяси 25-сессиясидаги нутқи // <https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-respublikasi>
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти раислигида ўтказилган видеоселектор йиғилишидаги нутқидан. 2025 йил 9 апрель
6. Алиева М., Равшанов Т. Малайзияда зиёрат туризми ривожланишининг ўзига хос хусусиятлари ва унинг ташкилий механизмлари. – Тошкент, "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2021. – Б.387-394.
7. Бабкин А.В. Специальные виды туризма. Учебное пособие. Ростов на-Дону, 2008/ – Б.7. <http://www.tourlib.net/>
8. Балабейкина Ольга Александровна. Религиозный туризм: возвращение к сущностным аспектам и влияние на развитие экономики региона. <https://cyberleninka.ru/article/n/religioznyy-turizm-vozvrashchenie>.

³⁰ Collins-Kreiner N. Pilgrimage-Tourism: Common Themes in Different Religions // International Journal of Religious Tourism and Pilgrimage. 2018. Vol. 6: №1. Pp. 8-17. DOI: 10.21427/D73428.

³¹ Печерица Е.В. ШарафANOVA E.E. Паломнический туризм: сущностные аспекты // Современные проблемы науки и образования. 2014. № 6. С. 576.

³² Pushkas V. Religious tourism or pilgrimage? // European Journal of Science and Theology. 2015. Vol.11. Iss.3. Pp. 131-142.

9. Гудкова Н.В. Становление и особенности жанра паломнического очерка в отечественный православный публицистике: дисс. ... канд. фил. наук: 10.01.10 – Тольятти, 2017. 205 стр.
10. Гулямова Г.П., Абдусаломова Ф. Ўзбекистонда зиёрат туризмини ривожлантириш. <https://cyberleninka.ru/article/n/zbekistonda-ziyorat-turizmini-rivozhlantirish>
11. Иванов А. В. Паломнический туризм и культурное наследие: вызовы и возможности // Журнал туристических исследований. № 4. 2020. С. 45–56.
12. Исаджанов А., Гульмуродов И. Жаҳон иқтисодиётида зиёрат туризми: хусусиятлари ва ривожланиш тенденциялари. <https://cyberleninka.ru/article/n/zha-on-i-tisodiyotida-ziyorat-turizmi-hususiyyatlari-va-rivozhlanish-tendensiyalari>
13. Collins-Kreiner N. Pilgrimage-Tourism: Common Themes in Different Religions // International Journal of Religious Tourism and Pilgrimage. 2018. Vol. 6: №1. Pp. 8-17. DOI: 10.21427/D73428
14. Овсянников В.П., Якунин В.Н. Религиозный туризм как механизм поддержания духовно-культурных процессов на уровне регионального социума. <https://cyberleninka.ru/article/n/religioznyy-turizm-kak-mehanizm>
15. Печерица Е.В. Шарафанова Е.Е. Паломнический туризм: сущностные аспекты // Современные проблемы науки и образования. 2014. № 6. С. 576.
16. Pushkas V. Religious tourism or pilgrimage? // European Journal of Science and Theology. 2015. Vol.11. Iss.3. Pp. 131-142.
17. **Таниева Г. М.** XVI–XIX аср ўрталарида ҳаж зиёратининг Ўрта Осиё халқлари маънавий, мафкуравий ва ижтимоий ҳаётида тутган ўрни, Дисс.... тарих фанлари.- Т.: Нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991.— Б. 52 (144 б.)
18. Темур тузуклари //Форсчадан| А. Соғуний ва Ҳ. Кароматов тарж; Б. Аҳмедов таҳрир. остида/.— Т.: Нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991.— Б. 52 (144 б.)
19. Худоёров А. Ўзбекистонда зиёрат туризми бозорининг ривожланишида тизимли ёндашув масалалари ва унинг хусусиятлари// Иқтисод ва молия. 2020. 2 (134), - Б.36-44.
20. Хусайн Воиз Кошифий Футувватномаи Султоний ёхуд жавонмардлик тариқати. Форс-тожик тилидан Н. Комилов таржи маси. Т., А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994, 112 б.
21. Эралиев Б. Ўзбекистон зиёратгоҳлари ва қадамжолари; Андижон ва Наманган вилоятлари / Б.Эралиев, И.Остонақулов, Н.Абдулаҳатов. –Тошкент, Turon Zamin Ziyo. 2014, - Б. 4.
22. Ўзбек тилининг изоҳли луғати/ А.Мадвалиев таҳрири остида. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти - Б.148.
23. <https://www.e-unwto.org/doi/book/10.18111/9789284425808>
24. https://mize.tech/blog/the-10-countries-with-the-biggest-tourism-industry/?utm_source=chatgpt.com
25. <http://mustaqillik.uz/uz/events/view/143>